


Raqamli rivojlanish darajasini baholash reytingida "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati 2-o'rinni qo'lga kiritdi

// 27.02.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/raqamli-rivojlanish-darajasini-baholash-reytingida-o-zkimyos>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati Raqamli rivojlanish darajasini baholash reytingida 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Xo'jalik boshqaruvi organlarida raqamli transformatsiya holatini reyting baholash natijalariga ko'ra "O'zkimyosanoat" AJ 97,44 foiz natijani qayd etib, 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Reytingda respublikaning umumiy hisobda 91 ta ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ishtirok etdi.

Eslatib o'tamiz, mazkur reyting O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 15-iyundagi 373-son qarori bilan amalga oshirib kelinmoqda.

Tashkilotlarda raqamli transformatsiya holatini reyting baholash ochiqlik va elektron ishtirok, elektron xizmatlar, axborot xavfsizligi hamda faoliyatning raqamlashganligi indeksleri asosida amalga oshiriladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati